

ZAMONAVIY LIBOSLARNI LOYIXALASHDA AN'ANAVIY TO'QIMACHILIK ELEMENTLARINING AXBOROT BAZASINI SHAKLLANTIRISH



Ra'no Muzaffarovna Ismoilova

Libos dizayni kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi (PhD)
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

E-mail: ismoilovarano1975@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-06>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy liboslarni yaratishda turli tarixiy davrdagi o'zbek milliy etno kostyumlarini adabiy etno-manbalarda o'rganilganlik darajasini taxlil qilish asosida milliy kiyimlar axborot ta'minotini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mato, xalq, to'qimachilik, milliy, Samarqand, bezak, zeb-ziynatlar, kashta.

Аннотация: Данная статья посвящена разработке информационного обеспечения национальной одежды на основе анализа степени изученности узбекских национальных этно-костюмов различных исторических периодов в литературных и этнографических источниках при создании современных моделей одежды.

Ключевые слова: ткань, народ, ткачество, национальный, Самарканд, орнамент, украшения, вышивка.

Abstract: This article is dedicated to the development of an information framework for national clothing, based on an analysis of the extent to which Uzbek national ethnic costumes from various historical periods have been studied in literary and ethnographic sources, in the context of creating modern garments.

Keywords: fabric, people, weaving, national, Samarkand, decoration, ornaments, embroidery.

Zamonaviy moda yo'nalishlaridan biri bo'lgan – etnoslub dizaynerlarning zamonaviy liboslarini yaratish bosqichida muhim o'rin egallaydi. Bu yo'nalish kiyim assortimentini turli xalq kostyumlarining milliy elementlari bilan boyitish ko'zda tutiladi. Bunday boyitish zamonaviy inson o'z milliy ildizlari bilan aloqani yo'qotmasligi uchun muxim axamiyatga egadir. Etnoslubni rivojlantirishda o'zbek milliy libosining nafis, viqor va did bilan bezalgan kostyum elementlari tuganmas manbai hisoblanadi.

Kiyim dizaynidagi tarix va zamonaviylik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Jahon dizaynerlarining kolleksiyalari ko'pincha tarixiy elementlardan foydalanadi: masalan, umumiy dizayn yechimi, dekorativ elementlari, bichimi va boshqalar. Biz buni ayniqsa Balenciaga, Dior, Gucci, Tom Ford, Roberto Kavalli, Oskar de la Renta, Ann Demeulemeester modellarida ko'rishimiz mumkin. Tarixiy elementlarni zamonaviy kostyumlarga qo'llashda dizaynerning katta mahorati va bilimlari talab qilinadi. Zamonaviy kiyim dizaynidagi kontseptual g'oya shundan iboratki, bu tarixiy kostyumning ba'zi jihatlarini qabul qilishdan tortib, ularni zamonaviy modellarga qo'llashgacha bo'lgan uzoq jarayondir.

Zamonaviy kiyimlarni loyihalash jarayonida an'anaviy kostyumning etno elementlaridan foydalanishni soddalashtirish uchun ularni tizimlashtirish, tahlil qilish va asosiy xususiyatlar ko'rsatkichlarini aniqlash uchun yangi texnologik yechimlar zarur. Bundan tashqari, asosiy manba sifatida an'anaviy kiyim bilan alohida aloqa zarur. Ammo bugungi kunda milliy kostyum madaniy meros yodgorligi bo'lib, faqat muzey namunasi sifatida saqlanib qolgan. Shuni inobatga olgan holda O'zbekistonda voha hamda vodiylarda joylashgan muzeylarning va ularning ichidagi liboslar, gilamlar, turli xil to'qimachilik elementlarini ko'rsak boladi. O'zbekiston to'qimachiligi yillar mobaynida o'z shakli hamda jozibasini yoqotmagan holda milliy muzeylar hamda

korgazmalarda saqlanib kelinmoqda bu esa hozirgi kelajak undan bahra olishi uchun shart sharoitlar kopliligini anglatadi. Demak bularni ko‘rar ekanmiz O‘zbekistonda joylashgan muzeylarni sanog‘i hamda sifati juda yaxshi, etborda ekanligi, ular orasidan Samarqandda joylashgan muzeylarning orni o‘zgaca ekanligini ko‘rsak boladi. To‘qimachilik elementlarini dizaynerlik amaliyotida qo‘llash tendensiyasi XX asming 80-yillarida boshlangan bo‘lsa, hozir bu yo‘nalish ilg‘or qadamlar bilan jadallashmoqda. Bunda estetik jihatdan jozibali bo‘lgan liboslarni yaratishda ularning sifatinu yuqori darajaga yetkazish, o‘zbek moda industriyasini rivojlantirishda an‘ana va zamonaviylik muvozanatini saqlagan holda liboslarni yaratishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi texnologiyalar va matolarning bo‘lishiga qaramay hozirgi kunda dizaynerlarning mualliflik kolleksiyalarini va eksklyuziv modellarini yaratishda o‘zbek milliy kiyimlarining etnoelementlari asosiy manba hisoblanadi. Dizaynerlarning ijodiy faoliyati jarayonida milliy kiyimlar haqidagi ma‘lumotlarni olish oson, aniq va tushunarli bo‘lishi uchun ularning asl manbalari bilan o‘zaro bog‘liqligi muxim ahamiyatga ega bo‘lib, shu maqsadda zamonaviy kiyimlarni loyihalashda dizaynerlar o‘z ijodiy ishlarida foydalanishlari uchun an‘anaviy to‘qimachilik elementlari axborot bazasini shakllantirishning dolzarbligini aniqlandi.

Mukkamal saviyadagi o‘zbek etno kostyumlarida amaliy bezak san‘at turlari, yuqori estetik afzalliklari, utilitar va iqtisodiy funksiyalari ajoyib tarzda mujassamlashgan. Badiiy shakllarning mukkamal ifodasining o‘zaro bog‘liqligi etnodizaynning yorqin namunalarini aks ettiradi va xar bir namuna individual tavsifga egadir. O‘zbek kostyumining asosiy ajralib turuvchi belgilari – shakli va silueti, mato va rangi, bichimi va uzunligi, taqilma va bezak turlari.

Zamonaviy kiyimlarni loyihalash jarayonida o‘zbek milliy kostyum elementlarini qo‘llashni yengillashtirish uchun to‘qimachilik elementlarini tizimlashtirish uchun taxlil va asosiy tavsif ko‘rsatkichlarni aniqlandi. Buning uchun turli tarixiy davrdagi o‘zbek milliy etno kostyumlarini adabiy etno-manbalarda taxlil qilish va Samarqand muzeylari misolida ma‘lumotlarni tizimlash asosida ma‘lumotlar WIXSTUDIO platformasi orqali bazasini yaratish amalga oshirildi.

1-rasm. WIXSTUDIO platformasida tuzilgan to‘qimachilik elementlarining tarkibiy ko‘rinishi




WixStudio platformasi foydalanuvchilarga veb-saytlarini dizayn qilish, ma'lumotlarni joylashtirish, SEO (Search Engine Optimization) qilish, mobil qurilmalar uchun moslashtirish va boshqa ko'plab funksiyalarni taklif etadi. Bu esa foydalanuvchilarga o'zlarining talablari va kerakliliklari bo'yicha saytlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Ushbu platformada to'qimachilik elementlarini axborot bazasini yaratish uchun Samarqand davlat muzey qo'riqxonasida saqlanayotgan exponatlar va ilmiy manbalar asosida ma'lumotlar tizimlashtirildi, bunda to'qimachilik elementlarini liboslar, naqshlar, so'zana va gilamlar, eksponatlar bo'lib ko'rsatildi (1, 2-rasm).

Axborot bazasini shakllantirishda Samarqand muzeylari va ilmiy manbalarda keltirilgan kiyimlar assortimenti, hamda matolar, amaliy bezak sana'atining to'qimachilik mahsulotlari, kashtachilik san'atida ishlatiladigan naqshlar tizimlashtirildi.

Tizimlashtirilgan ma'lumotlar asosida liboslar barcha turdagi ustki va yengil kiyimlar, bosh kiyim va poyabzallar to'g'risidagi ma'lumotlar, matolar intrrfeysini ishlashda muzeylarda saqlanayotgan matolar turi bo'yicha ma'lumotlar, amaliy bezak sana'atining to'qimachilik mahsulotlari bo'lgan gilamlar, so'zanalar hamda kashtachilik naqshlari bo'yicha har bir namunaning nomi, kim uchun mo'ljallanganligi, vazifasi va olingan manbasi keltirilib, jadval ko'rinishida ishlab chiqildi va maxsus ishlab chiqilgan saytga joylashtirildi.






2-rasm. To'qimachilik elementlari axborot bazasining bosh oynasi.

1-jadval Kiyimlar assortimenti

	<p>Kiyim nomi: Joma</p> <p>Kim uchun mo'ljallangan: ayollar</p> <p>Kiyim vazifasi: Marosimlar</p> <p>Manba: XIX asr Nurota</p> <p>Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi</p>
	<p>Kiyim nomi: Joma</p> <p>Kim uchun mo'ljallangan: ayollar</p> <p>Kiyim vazifasi: Marosimlar</p> <p>Manba: XIX asr Nurota</p> <p>Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi</p>
	<p>Kiyim nomi: Bashang kiyim</p> <p>Kim uchun mo'ljallangan: ayollar</p> <p>Kiyim vazifasi: Marosimlar</p> <p>Manba: XIX-XX asrlar, Samarqand hamda Buxoro viloyatlarida kiyilgan</p>
	<p>Kiyim nomi: Ayollar Paranjisi</p> <p>Kim uchun mo'ljallangan: Ayollar</p> <p>Kiyim vazifasi: kundalik</p> <p>Manba: XX asr Samarqand</p>






2-jadval.
Matolar bo'yicha ma'lumotlar

	<p>Mato Nomi: Yarimipak mato Manba: 1936 yil Qarshi Tarkibi: Ipak, paxta Razmeri: 312x57 sm</p>
	<p>Mato Nomi: Baxmal Manba: XX Buxoro Tarkibi: Shoyi va paxta iplar Razmeri: 170x33,5 sm</p>
	<p>Mato Nomi: Xonatlas Manba: 1936 yil Qo'qon Tarkibi: Ipak Razmeri: 595x52 sm</p>

3-jadval
Amaliy bezak sana'atining to'qimachilik mahsulotlari

	<p>Nomi: So'zana</p> <p>Tarkibi: paxta mato, shoyi ip</p> <p>Ma'limot: XIX Samarqand</p>
	<p>Nomi: So'zana</p> <p>Manba: paxta, ipak</p> <p>Ma'limot: Samarqand</p>
	<p>Nomi: So'zana</p> <p>Tarkibi: Satin , ipak kashta</p> <p>Ma'limot: XX Samarqand</p>
	<p>Nomi: So'zana</p> <p>Tarkibi: paxta va silliq gazlama, shoyi ip</p> <p>Ma'limot: XX Samarqand</p>

4-jadval
Kashtachilik san'atida ishlatiladigan naqshlar

		Nomi: Turunji
		Nomi: Turunji
		Nomi: Turunji xazanok
		Nomi: Tojigul xazanok
		Nomi: Tojigul

Muzeylardagi ana'anaviy va milliy san'atini o'rganish va unga ijodiy qayta yondoshish zamonaviy libosning boyishi, rivojlanishi, yangilanishi uchun imkon tug'diradi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy libosdagi tarixiy motivlar asosiy e'tiborni o'ziga tortishi bilan bir qatorda

ularga yangicha nazar bilan ham qarashga imkon beradi. Bu esa zamonaviy kiyimlarni loyihalashda dizaynerlar o'z ijodiy ishlarida etno-elementlaridan foydalanishlarini osonlashtiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.M.Ismailova, I.O'roqova. An'anaviy milliy liboslar zamonaviy liboslar dizaynining tuganmas manbasidir. Ijodkor o'qituvchi. Ilmiy-uslubiy jurnal. Materiallari to'plami 5-yanvar, 2024-yil, 35-son. 30-33 betlar.
2. R.M.Ismailova, A.Сапарбаева. История и символика: особенности национального костюма невест каракалпаков. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. № 4 (19), 2024. -С.208-215.
3. Z.Xaitova. O'zbek milliy liboslarining shakllanish tarixi va ularning dizayn xususiyatlari (kecha va bugun). O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024-yil. 201-203 betlar.
4. R.M.Ismailova, I.B.Boltayeva. Surxondaryo viloyati milliy kiyimlari etnografik tadqiqotlari. Сборник материалов международной научно-практической конференции "Тенденции развития текстильной промышленности: проблемы и пути решения".-Термез. -2021. –С. 491-494.
5. Abdullayev S.A., Khasanova N.S., Khaitova Z.P., Abdullaeva F. S. The Sentral Asian costume complex: the issues of researching historical and national costume design culture. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 4 Issue: 03 | 2024. p. 39-45.